

## **TABIYY RESURSLARDAN FOYDALANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISHNING NORMATIV-HUQUQIY TARTIBI**

**Shoymardonov B.**

*Termiz Davlat universiteti Jinoyat va Fuqarolik huquqi  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Sayfullayeva Muqaddas Komol qizi**

*Termiz Davlat universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich  
1123- guruh talabasi*

**Anotatsiya.** So'nggi o'tgan yillar mobaynida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb muammo bo'lib kelmoqda. Yer va suv inson hayoti, ekologik barqarorlik hamda iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim tabiiy resurslar hisoblanadi. Shuning uchun ushbu resurslardan foydalanishda qonunchilik talablariga rioya qilish, ularni ifloslanishdan, cho'llanishdan va suvsizlanishdan asrash zarur. Ushbu maqolada hukumatimizning qonun va qarorlari hamda ularni muhofaza qilishning bir necha usullari yoritiladi. Hozirgi vaqt dagi bu dolzarb muammolarga yechim va takliflar beriladi.

**Kalit so'zlar:** yer resurslari, suv resurslari, ekologik muhofaza, huquqiy tartib, tabiiy resurslar, qonunchilik, O'zbekiston, yerga egalik, suvdan foydalanish, davlat nazorati.

### **Kirish**

Hozirgi vaqtlardagi asosiy muammolardan biriga aylanib borayotgan yer va suvdan foydalanish masalasi tobora global muammoga aylanmoqda. Shuningdek, jannatmakon yurtimizda ham bu muammolar mavjud. Biroq mamlakatimizda yer va suv resurslari milliy boylik sifatida baholanadi va ularning huquqiy muhofazasi davlat siyosatining ustuvor



yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada yer va suvdan foydalanish bo‘yicha qonun hujjatlari, sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘lida olib borilayotgan chora-tadbirlar yoritiladi.

Darhaqiqat, yer va suv resurslari har qanday davlatning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy tabiiy boyliklardandir. Jamiyatimizda aholining yashash sharoitini yaxshilash, oziq-ovqat resurslari bilan ta‘minlash kabi masalalar bevosita ushbu sohalarga bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining geografik joylashuvi va iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, yer va suv zaxiralarining cheklanganligi bilan ajralib turadi. Shu bois, ushbu resurslarning muhofazasi hamda ulardan foydalanishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz qonunchiligiga murojaat qiladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar xalq mulki hisoblanishi va ular davlat tomonidan boshqarilishi belgilab qo‘yilgan. Bu norma yer va suv resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishda mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Qonunchilikda belgilanganidek, fuqaro yoki xo‘jalik yurituvchi subyekt ushbu resurslardan faqat qonun doirasida, ekologik xavfsizlikni ta‘minlagan holda foydalanishi mumkin. Qonun misolida ko‘rinib turibdiki, davlatimiz bu sohada chuqur yondashuvni qo‘llab kelmoqda va haligacha aholining ehtiyojlaridan kelib chiqqan ayrim tanqis sanoat sohalarini tartibga solishda davom etmoqda. Jumladan, suvdan foydalanish jarayonida resurslarning kamayib borishi, ifloslanishi, isrof bo‘lishi va texnologik yo‘qotishlar kabi salbiy omillar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini talab etadi.


Shu bilan birga, yer resurslaridan foydalanish “Yer kodeksi” asosida amalga oshiriladi. Yerga egalik qilish, uni ijara berish, ajratish, maqsadli yo‘nalishini o‘zgartirish, degradatsiyaga uchragan yerlarni rekultivatsiya qilish bo‘yicha aniq tartib va me’yorlar mavjud. Yerlarni o‘zlashtirishda ekologik ekspertiza natijalari, yer bonitirovkasi va meliorativ holati muhim mezonlar sifatida inobatga olinadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yer osti suvlarining monitoringini yo‘lga qo‘yish, ularni geologik zaxira sifatida saqlash, yangi suv manbalarini aniqlash va

ularni qonuniy foydalanishga topshirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Biroq ayrim hollarda yer osti suvlaridan ruxsatsiz va litsenziyasiz foydalanish, meliorativ holatni hisobga olmasdan artezian quduqlar qazish kabi qonunbuzarliklar uchrab turibdi. Bu esa nafaqat ekologik muhitga, balki yerning meliorativ sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish maqsadida Davlat ekoliya qo'mitasi, Geologiya agentligi, Suv xo'jaligi vazirligi kabi vakolatli tashkilotlar tomonidan nazorat va monitoring ishlari kuchaytirilmoqda. Shuningdek, jamoatchilik nazorati, raqamli texnologiyalarga asoslangan suv hisoblash tizimlari, suv tejovchi irrigatsiya usullarini keng joriy etish orqali qonunbuzarliklar kamaytirilmoqda.

Viloyatlararo suvdan foydalanish va suv hajmining hududlar bo'yicha notekis



taqsimlangani ham dolzarb muammodir. Yurtimizning ayrim cho'l va dasht zonalarida suv tanqisligi kuzatilmoqda. Bu hududlarda ham aholi istiqomat qiladi va turmush sharoitlari og'irlashmoqda. Davlatimiz tomonidan ushbu hududlarda yashil zonalarni ko'paytirish, yer osti suvlarini chiqarish kabi muhim yechimlar yo'lga qo'yilmoqda

va aholi ta'minoti bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda.

Bundan tashqari, yer va suvdan foydalanishda barqarorlikni ta'minlashda xalqaro tajribalar va zamonaviy yondashuvlarni amaliyatga tatbiq etish muhimdir. Xususan, Yevropa Ittifoqi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan amalgaloshirilayotgan ekologik loyihalar doirasida O'zbekistonda bir qator innovatsion texnologiyalar sinovdan o'tkazilmoqda. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Xulosa o'rnila aytish mumkinki, bizning jamiyatimizda ushbu sohada kompleks yondashuv, qonunchilik asosida nazoratni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali barqaror rivojlanishga

erishish yo'lida izchil harakatlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, suv tejovchi tizimlar va ekologik ekspertiza amaliyotga keng joriy etilmoqda. Umuman olganda, yer va suv resurslaridan to'g'ri foydalanish orqali mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilinmoqda.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi". – Toshkent: Adolat, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adliya nashriyoti, 2023.
4. Xudoyberganov R., To'raqulov Sh. *Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni boshqarish.* – Toshkent: Ekosan, 2023.
5. Abdullaeva N.K. *Atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari.* – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2023.
6. Karimov A.A., Xolbo'tayev R.R. *Ekologik xavfsizlik va resurslardan barqaror foydalanish.* – Samarqand: Zarafshon, 2019.

